

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Exploring the flexibility of adjective order in english: cognitive, pragmatic, and stylistic perspectives.....	873
J.G'.Numonova	
The role of podcasts and audiobooks in language education.....	877
J.G'.Numonova	
The influence of technological advancements on language assessment methods.....	881
O.Z.Dadajonov	
XX asr O'zbek va Nemis dramasida davr va qahramon talqini.....	885
S.A.Yusupova	
The evolution of politeness: a historical analysis of English novels.....	890
N.M.Merganova, N.A.Orifjonova	
Og'zaki nutqning o'ziga hos xususiyatlari.....	894
G.A.To'lanboyeva	
Muloqot va uning xususiyatlari.....	898
S.A.Xaqnazarova	
Abdulla sher ijodida tiplar an'anasi.....	901
N.M.Merganova	
Chet tilda og'zaki nutqni rivojlantirishning yo'llari.....	905
C.X.Azimova	
Категории «Вежливости» в речевых актах высказывания «Отказов», «Отрицаний» и «Удивлений» в русской и американской культурах.....	908
N.A.Komilova	
The representation of gender in English idiomatic expressions.....	911
Y.A.Nasirdinova	
Fransuz navoiyshunosligining global ahamiyati.....	915
Y.A.Nasirdinova	
Aleksandr Papas Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari haqida: tasavvufiy yondashuv va tildagi maxfiy kodlar.....	919
S.To'lanov	
Turistik diskursning matnda ifodalanishi.....	923
S.To'lanov	
Turizm va reklama diskurslari: funksional va pragmatik yondashuv.....	927
Y.U.Abdurazzakov	
Zamonaviy sotsiolingvistik tadqiqotlar sharhi.....	931
I.T.Dehqonov, T.S.Mo'minova	
Fransuz tili darslarida maqol va matallar bilan ishlash usullari.....	934
D.S.Usmonova, Z.A.Anvarjonova	
Challenges in translating Uzbek literature to English.....	938
D.S.Usmonova, N.R.Rajabova	
Using ai in the field of studying english as a second foreign language.....	942
Sh.M.Yusufjonova	
Tarjima lug'atlarida milliy – madaniy xususiyatlar masalasi.....	946
S.A.Xaqnazarova	
Abdulla she'r ijodida g'oyaviy an'ana.....	949
N.A.Nizomova	
Makon yasovchi affikslarning o'zbek va ingliz tillardagi tarjimalari.....	953
G.Astonova, M.M.Kaharova	
O'zbekiston va Germaniyada ta'limni tashkil etishga oid leksik birliklar tavsifi.....	957
G.Astonova Oliy ta'lim tizimiga oid leksik birliklarning ifodalanishi.....	961
N.A.Nizomova	
Makon va zamon tushunchalar o'rtasidagi bog'liklar masalasi.....	966
S.I.Quziyev	
Turizm maqsadlari uchun ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish.....	970
Z.M.Yigitaliyeva	
Mualliflashtirish kategoriyasining matn doirasida o'rganilganligi.....	975
Z.M.Yigitaliyeva	
About the term of persuasion.....	979



UO'K: 811.112.2'373.7

TARJIMA LUG'ATLARIDA MILLIY – MADANIY XUSUSIYATLAR MASALASI
НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ПРИЗНАКОВ В ПЕРЕВОДНЫХ СЛОВАРЯХ
TRANSLATION OF NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS IN TRANSLATION
DICTIONARIES

Yusuffjonova Shaxloxon Muxtorovna 
Fergana State Universit, f.f.f.d., (PhD)

Annotatsiya

Tarjima lug'atlarida milliy-madaniy xususiyatlar masalasi til, madaniyat va jamiyatning o'zgacha ko'rinishini ifodalaydi. Til o'zining asliy, milliy xususiyatlari, grammatikasi, leksikasi, ifodalar orqali uning asl ma'nolari ifodalaydi. Madaniyat esa bir xalq yoki jamiyatning ma'naviyat, adabiyot, san'at, musiqa, ijodiylik va boshqa sohalarini o'z ichiga oladi. Tarjima lug'atlarida milliy-madaniy xususiyatlar ko'rsatilishi til o'zining asosiy xususiyatlarini va fikr-mulohazalarini tushuntiradi va uning o'zgacha shakllanishini ko'rsatadi. Bu esa, birlashgan jamiyat va insonlarning tabiiy munosabatlarining ifodalari orqali ko'rsatiladi. Tarjima lug'atlarida milliy va madaniy xususiyatlar masalasi tili, madaniyati va odatlari ta'lim, o'qitish sohalarida muhim bo'lib qoladi. Milliy xususiyatlar tilning o'ziga xos, o'zaro farqlanuvchi qismlari bo'lishi mumkin, masalan, ifodalarni va so'zlar va ifodaning aks etishi mumkin. Masalan, bir so'zning ayniqsa shakllanishi va ma'nosini qanday ifodalashi milliy tilning uslubini va madaniy tarixini ko'rsatadi. Milliy va madaniy xususiyatlar o'zaro bog'liqlikda saqlanadi va ular tarixiy, geografiyaviy, madaniy va boshqa omillarni bizga to'liq etkazib beradi. Bu, tarjima lug'atlarida juda muhim bo'lib, tilning o'ziga xos jihatlarni o'rganish va ma'nosini tushuntirish uchun juda muhimdir.

Аннотация

Тема национальных и культурных особенностей в переводных словарях представляет собой отражение уникальности языка, культуры и общества. Язык, через свои первоначальные особенности, грамматику, лексику и выражения, передает свои основные значения. Маданият, в свою очередь, включает в себя духовные ценности, литературу, искусство, музыку, творчество и другие области культуры и искусства определенного народа или общества. Отражение национальных и культурных особенностей в переводных словарях показывает основные характеристики языка, его уникальное формирование и специфику. Это выражение естественных отношений объединенного общества и показывает их через культурное взаимодействие. Тема национальных и культурных особенностей в переводных словарях является важной в области образования и преподавания. Национальные особенности языка могут различаться и включать в себя выражения и слова, а также способы их интерпретации. Например, способы образования и значение конкретного слова могут отражать стиль и культурную историю национального языка. Национальные и культурные особенности хранятся взаимосвязанными, и они передают нам исторические, географические, культурные и другие факторы. Это чрезвычайно важно для переводных словарей, поскольку для понимания смысла и особенностей языка важно изучать его уникальные стороны.

Abstract

The topic of national and cultural characteristics in translation dictionaries reflects the uniqueness of language, culture, and society. Language, through its original features, grammar, vocabulary, and expressions, conveys its core meanings. Meanwhile, culture encompasses spiritual values, literature, art, music, creativity, and other areas of the culture and art of a particular people or society. The reflection of national and cultural characteristics in translation dictionaries demonstrates the basic characteristics of the language, its unique formation, and specificity. This is an expression of the natural relations of a united society and shows them through cultural interaction. The topic of national and cultural characteristics in translation dictionaries is important in the field of education and teaching. National language features may vary and include expressions and words, as well as ways of interpreting them. For example, the ways of formation and the meaning of a specific word can reflect the style and cultural history of the national language. National and cultural characteristics are interrelated and convey to us historical, geographical, cultural, and other factors. This is extremely important for translation dictionaries, as understanding the meaning and characteristics of language requires studying its unique aspects.

Kalit so'zlar: milliy-madaniy tarix, milliy madaniyat, semantika, leksik ma'no, frazeologik birliklar, ekspressiv hususiyat, tarjimashunoslik masalalari.

Ключевые слова: национально-культурная история, национальная культура, семантика, лексическое значение, проблемы перевода, экспрессивный признак, фразеологический момент.

Key words: national-cultural history, national culture, semantics, lexical meaning, translation issues, expressive feature, phraseological point.

KIRISH

TILSHUNOSLIK

Tarjimashunoslik muammolari - bu so'z yoki matnni boshqa tillarga o'girishda yuzaga keladigan muammolar va qiyinliklar. Bu muammolar maqsadli tillarning, ifodalarning va atamalarning muvofiqlikli tarjimasi, madaniy va kontekst farqlari, asl matnning to'g'ri tushunchalarini o'tkazish kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Tarjimashunoslik va lug'atshunoslikning bu sohalarida, badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa tarjima yo'nalishlari bo'ylab boshlanganligi sababli, ular keng tarqalgan masalalardan biri hisoblanadi. Tarjimashunoslikning bu sohasi ham tarjima yo'nalishlarining barchasiga taqdim etilganligi uchun, bu sohada kamroq tushunilgan yoki chuqur o'rganilgan bo'lishi mumkin. Lug'atlardagi tarjima usullari odatiy ko'rinishga ega bo'lsa-da, ikki til o'rtasidagi muqobillikni ta'minlash juda qiyin, mashaqqatli va murojaatli ishdur. Chunki, lug'atshunoslar tomonidan tavsiya etilayotgan muqobil so'zlar va muqobil ifodalar tarjimon uchun "hamirto'rtish" vazifasini bajarishga kerak emasligini unutmang. Har qanday mahir, poliglot tarjimon ham ikki, ko'p tili lug'atlar bilan birgalikda o'z ona tili orqali izohli lug'atlaridan foydalanmasdan tarjima amalini bajarib bo'lmaydi. Agar oshshatish mumkin bo'lsa, lug'atdagi bir so'z va ifodalarning tarjimasi odatda "do'st" sifatida bo'lishi lozim. Bu nuqta dastlabki til birliklarining sifat ko'rsatkichlarining davr talabiga javob berishini talab qiladi. Lug'atdan olingan birliklar bir tilidan ikkinchi tilgacha bajarilgan tarjimalar to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi lug'atning sifat darajasini aniqlab beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tarjima va ikki til lug'ati asosida ikki tilni taqqoslash, chogishtirish, qarama-qarshi qo'yish tamoyili mavjud. Lekin shuni e'tiborga olislik lozimki, tarjima ongli nutqiy faoliyatda og'zaki yoki yozma, dinamik tarzda amalga oshirilsa, lug'atda taqqoslanayotgan leksik-stilistik, frazeologik birliklar tayyor, matndan ajratib olingan holda bo'ladi. Tarjima jarayonida har safar o'ziga xos tekstga duch kelganda, ikki til lug'atlari tayyor, taqqoslash joiz bo'lsa, "yarim tayyor" [1] so'z, so'z birikmalarni matn birligi sifatida tavsiya etadi. Shu nuqtai nazaridan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, tarjima lug'atining asosiy masalalaridan, tushunchalaridan biri tarjima olinayotgan til birliklari bilan tarjima qilinayotgan til birliklarining ekvivalentlik munosabatlarini o'rnatishdir. Ushbu o'rinda ekvivalentlikning semantik, stilistik, o'ziga xos va kommunikativ xususiyatlarni farq qilish talab etiladi:

- Semantik ekvivalentlik ikki til birliklarining bir xil ma'noga ega bo'lishi, umumiy referentga bog'liqligi hamda bir xil ma'no [3] qolamiga egalligi.
- Stilistik ekvivalentlik ikki til birliklarining bir xil funksional-stilistik xususiyatiga ega bo'lishidir.
- O'ziga xos ekvivalentlik – ikkala tilda ham birliklarning bir xil qo'llanish darajasiga ega bo'lishi.
- Kommunikativ ekvivalentlik esa oddiy gap, qisqa matnlarning sathida aniqlanishi mumkin.

Bu erda adekvatlik, tarjimaning aniqlik darajasi ancha yuqori bo'ladi. Chunki, oddiy ravishda, ham semantik, ham stilistik, ham o'ziga xos nuqtai nazaridan to'liq mos tushadigan ekvivalentlar soni chegaralangan. Shuning uchun ham lug'atshunos tarjimon birliklari orasidagi muqobillikni o'rnatish, ta'kidlash maqsadida "murosa", kompromiss yo'lini tanlashga majbur bo'ladi. Ushbu "murosa" [9]yo'li orqali tarjima qilinayotgan birlikning ekvivalenti tarjima qilinayotgan tilda boshqa ekvivalentlar orqali to'ldirilishi, boyitilishi mumkin. Bu narsa har bir tilning qo'shimcha imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Tillar o'rtasidagi muqobillik tillarning ichki sinonimlari izomorf xususiyatidan kelib chiqqan holda ro'yobga chiqariladi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Yuqoridagi ta'moyillardan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha, lug'atga olinayotgan "bosh so'z" semantikasi bilan tarjima qilinayotgan til ekvivalentlari orasidagi muqobillikni quyidagi yo'llar orqali amalga oshirish mumkin:

Birinchi ideal yo'l - bosh so'zni tarjima tilida mavjud bo'lgan so'z bilan almashish, bu yo'l substitutsiya deb ataladi va biron bir tovush o'rmini boshqa tovush bilan almashitirilishini anglatadi. Bundan barcha semantik, stilistik, o'ziga xos va kommunikativ ekvivalentlik to'la mos tushadi. Odatda, bular baynalmilal ilmiy terminlar, masalan, atom, aloa, algoritm, demokratiya, dollar, kompyuter va hokazo. Bunday so'zlar va iboralar aksariyat tillarda bir xil yoziladi, bir xil imlodagi uchratishimiz mumkin.

Ikkinchi yo'l - bosh so'zning tarjima tilidagi ekvivalenti bilan ma'lum darajada semantik farqlanishi natijasida tabaqalashtirilgan tafovutlar mavjud bo'lgan ekvivalentlar orqali tarjima qilinadi. Masalan, nemis tilidagi ~ absagen [12] so'zi o'zbek tiliga 'ko'nmaslik, unamaslik, rad kilmok, voz kechmoq, bahridan o'tmoq' kabi so'z va so'z birikmalari orqali tarjima qilinishi mumkin.

Uchinchi yo'l - semantik "holis" tarjima bo'lib, tarjimaga olinayotgan birlik, ya'ni "bosh so'z"ning bir qancha sinonimlari bo'lishiga qaramasdan, faqat "holis" bir so'z bilan tarjima qilinadi. Masalan, o'zbek tilidagi ish, mehnat so'zlari nemis tiliga "Arbeit" [10] so'zi orqali, nemis tilidagi "Fluß, Strom"[8] so'zlari o'zbek tiliga 'daryo' so'zi orqali tarjima qilinadi. Ushbu o'rinda tarjima qilingan so'z, ekvivalent o'zinga barcha sinonimik variantlariga nisbatan neytral semantik-stilistik xususiyatga ega bo'lishi talab etiladi. Ta'kidlash lozimki, mavjud barcha ikki til, ko'p tilli lug'atlarda so'zlarining ekvivalentlik munosabatlariga o'ta kam e'tibor qaratiladi. Tarjimalarda so'zlarining morfologik tabiati muhim hisoblanadi. Ya'ni tarjima olinayotgan tildagi ot so'z turkumiga oid so'zlarini tarjima qilayotgan tildagi faqat ot so'z turkumi orqali tarjima qilish talab qilinadi. Vaholan ki, tarjima jarayonida leksik-grammatik munosabatlar neytrallashtirilib, ba'zi holatlarda boshqa so'z turkumi yoki erkin va turg'un so'z birikmasi orqali muqobillikka erishish ham mumkin. Masalan, vokzallarda e'lon qilinadigan nemis tilidagi nicht einsteigen [10] birliklari o'zbek tiliga '(poezga) chiqish ma'n etiladi' tarzida tarjima qilinadi. Yoki o'zbek tilidagi shabboda so'zi nemis tilida schwacher Wind tarzida tarjima qilinishi mumkin. Umuman olganda, ikki til lug'atlarni tuzish jarayonida til birliklari orasidagi ekvivalentlik munosabatlarining nozik tomonlarini alohida ajratib ko'rsatish maqsadida "asosiy" va "qo'shimcha" ekvivalenti tushunchalaridan foydalanish maqsadga mo'ljallangan bo'lar edi.

XULOSA

Har bir tilda milliy va madaniy xususiyatlar mavjud-ki, bu belgilar tilning xalq psixologiyasini, olamni anglash darajasi va xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Aynana tarjima jarayonlarida milliy-madaniy tushunchalar bilan bog'liq lingvistik birliklar masalasi qiyinlik tug'diradi. Tarjima nazariyasida bu jihatlar kam etibor berilgan va ko'p joyda tilning bu nodirliklari variantlar bilan zorma-zoraki yopilib ketiladi. Mazkur tushunchalar tarjimasig'a to'g'ri mutaxassislik doirasida chuqur yo'nda shu tuzilmagan mazmuniyat tijoratining oshirish bilan birga tarjima nazariyasi takomillashtirishi va kognitiv lingvistika rivojlanish orqali til egallari hamda tarjima qilingan tilida so'zlashuvchilarning lisoniy olam manzarasini boyitishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Sh.Rahmatullaev. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari, Toshkent, 1966, 9-58-b.
2. Sh.Rahmatullaev. Nutqimiz ko'rki, Toshkent, 1970, 5-43-b.
3. A.Mamatov. Frazeologizmlarning shakllanish asoslari, Toshkent, 1996, 5-48-b.
- 4.Yusufjonova Shakhlo Mukhtorovna. Tarjimada frazeologik iboralarning milliy xususiyati va ularning badiiy asarlardagi tasviriy ifodasi. *Current Approaches and new Research and new Research in Modern sciences*, 2(2), 112-116. (2023)
- 5.Yusufjonova Shakhlo Mukhtorovna.Фраземаларнинг таржима усуллари ва уларни такомиллаштиришда миллий ва маданий хусусиятларининг ифодаланиш жиҳатлари. *Sciences and Innvation in the Education System*.2(2), 168-172. ,(2023).
6. Шахло Мухторовна Юсуфжонова. Миллий ва маданий хусусиятлар доирасида немис ва ўзбек тилларидаги фразеологик бирликларнинг тавсифланиши. "Science and Education" Scientific Journal. Volume 4 Issue 2. 1714-1715. February 2023 /.
7. Yusufjonova Shakhlo Mukhtorovna. Development of Translation of Phraseological Units in German and Uzbek Languages. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*.Volume: 02 Issue: 02 / 2023.
- 8.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. - Москва: Рус тили, 1981. 35-бет
- 9.Gerhardt Wahrig. Deutsches Wörterbuch. Mosfik Verlag, 1980, s.305
- 10."Большой немецко-русский словарь под ред. профессора О.И.Москальской. М., //Изд. Русский язык, 1986,стр.76
- 11.Беракула К.Т. Англо-украинский фразеологический словарь. Около 30 000 фразеологических выражения. – Кнеж, 1969
12. Баута А. и др. Русско-литванский фразеологический словарь, -I, Рига, 1974. Тi- 1974;
13. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг қисқача фразеологик луғати - Т., 1964;
- 14.Сарикова М.Русско-узбекский фразеологический словарь. – Т.,1972, -;
- 15.Тагней м.г. Русско-азербайджанский фразеологический словарь. Баку, 1974
- 16.Шанский Н.М., Быстрымва Е.А. Словарь русского языка - М., 1979,